

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria
on October 20th, 2022.

www.conferencepublication.com

INNOVATION USULDA AHOLI TOMORQALARIDA ANORZORLAR TASHKIL ETISH

Ulug'berdiyev Odil Bobonazarovich,
Termez Institute of Agrotechnologies and Innovative Development «Forestry,
medicinal plants and horticulture» Department Assistant

Fayzullayev O'tkir Aminqulovich,
Termez Institute of Agrotechnologies and Innovative Development «Forestry,
medicinal plants and horticulture» Department Assistant

Saydullayev Narzullo Bahodir o'g'li
Termez Institute of Agrotechnologies and Innovative Development «Forestry,
medicinal plants and horticulture» Department Assistant

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti „O'rmonchilik, dorivor
o'simliklar va manzarali bog'dorchilik" kafedrasida assistent o'qituvchisi Ulug'berdiyev
Odil Bobonazarovich, Fayzullayev O'tkir Aminqulovich, Saydullayev Narzullo
Bahodir o'g'li

Термезский институт агротехнологий и инновационного развития, „Лесное
хозяйство, лекарственные растения и садоводство" Ассистент кафедры
Улуғбердиев Одил Бобоназарович, Файзуллаев Ўткир Аминкулович, Saydullayev
Narzullo Bahodir o'g'li

Аннотация

Respublikamizdagi aholi tomorqalarida anor mevasini yetishtirish va ekish usullari,
mavjud anorzorlarda agrotexnik tadbirlarni to'g'ri olib borish va samarali foydalanish
orqali yuqori hosildorlikga erishish.

Аннотация

В нашей республике выращивание граната и его посадки существуют в наших
жилых садах, кроме того. В гранатовых зонах премиальное плодородие и
продуктивность благодаря эффективному использованию сельскохозяйственных
мероприятий.

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria
on October 20th, 2022.

www.conferencepublication.com

Annotation: In our Republic producing pomegranate fruit and planting exist in our in habitant gardens, futheremore. In pomegranate areas have premium fertility and productivity by efficient using agricultural events.

Kalit so'z: biologiyasi, agrotexnikasi, ekish usullari, anor, tarqalishi, navlari, zararkunandalari.

Ключевое слово: биология, агротехника, методы посадки, гранат, распространение, разновидности, вредители.

Keywords: biology, agricultural technology, planting methods, pomegranate, spread, varieties, pests.

Kirish

Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda agrar sohaning o'rni va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, xosildorlik manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondoshuvlarni joriy etish dolzarb masaladir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida, kambag'allikni qisqartirish va qishloq xo'jaligi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil – bu qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Bu jarayonda har gektar yerdan olinadigan daromadni hozirgi o'rtacha 2 ming dollardan kamida 5 dollargacha yetkazish ustuvor vazifa qilib qo'yildi va qishloq xo'jaligiga eng ilg'or texnologiyalar, suvni tejaydigan va abiotexnologiyalarni, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishimiz lozimligini belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29-martdagi ПФ-5388-son «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida» gi, 2017-yil 7 fevraldagi ПФ-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari hamda 2019 yil 20-martdagi ПҚ-4246-son «O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020yil 28-yanvardagi ПҚ-4575-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria
on October 20th, 2022.

www.conferencepublication.com

rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarda yangi mevali bog'lar tashkil etish vazifalarini alohida belgilab berilgan.

Asosiy qism

Anor o'simligining biologiyasi (*Punica granatum* .L) Anor –anordoshlar oilasiga mansub Uning yog'ochi qimmatbaho material hisoblandi. Anor manzarali o'simlik sifatida ham o'stiriladi. Anor kichikroq daraxt yoki buta shaklida o'sadi, bo'yi 2-5 m gacha yetadi, ildizi kuchli. Odatda, ko'plab bachki ildiz chiqaradi. Novdasi ser tikon, guli och qizil bo'lib, novdalarining uchida bittadan beshtagacha joylashadi, chetdan changlanadi. Anorning guli ikki xil: birinchisi –yirik, kichik ko'zasimon shaklda bo'ladi va odatda, changdondan yuqorida yoki u bilan baravar joylashadi, bu gullar meva tugadi. Ikkinchisi –mayda, urug'chisi kalta, qo'ng'iroq shaklda bo'lib, changdondan pastroqda joylashadi, bular meva tugmaydi. Urug'chisi uzun gullar ko'pincha o'tgan yilgi novdalarda, urg'chisi kalta gullar esa shu yilgi novdalarda chiqadi. 15-16 daraja sovuqda uning ildiz bo'g'zigacha sovuq uradi. Shuning uchun qishda uni ko'madilar.

Ekish usullari. Anor asosan, qalamchadan ko'paytiriladi. Unumdor qumoq, nami yetarli tuproqlarda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilikka chidamli, lekin namsevar. Yerning unumdorligiga qarab, o'rganish natijasida aholi tomorqalarida ko'chat oralig'i 3x3m, 2x3m, 2x2m, 1.5x2m sxemalarda ,ba'zan shu sxemada shaxmat usulida ham ekilgan. Agar qator oralig'idan qo'shimcha qishloq xo'jaligi ekinlari ekib foydalanilsa, anor ko'chatlarini 4x3m, 3x3m, 3x2m sxemada, qator oralig'idan qo'shimcha qishloq xo'jaligi ekinlari ekib foydalanilmasa, anor ko'chatlarini 2x2m, 2x3m, 1.5x2m sxemada ekiladi. 1-rasm



1-rasm: 3x3m sxemada ekilgan anor tuplari

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria
on October 20th, 2022.

www.conferencepublication.com

O'zbekiston sharoi-tida kech kuzda xashak, qamish bilan yopiladi yoki tuproqqa ko'milib, bahorda ochiladi. Vegetatsiya davri 180–215 kun. Yozdan kuzgacha gullaydi. Mevasi 120–160 kunda– sentabrning ikkinchi yarmida pishadi. – 15° –17° sovuqqa chidaydi, – 20° da yer usti qismi (tanasi)ni sovuq urib ketadi. Anor 3–4 yoshdan meva tuga boshlaydi, 8–10 yoshdan to'liq hosilga kirib, 30–40 yil meva beradi. Hosildorligi 200 s/ga gacha boradi. Anor may oyidan boshlab gullaydi, gullash to sentyabr-oktabr oylarigacha davom etadi. Asosiy gullash may oyida va qisman iyun oyining birinchi yarmida o'tadi. 30-35 kun ichida gullarning 90-95% i yoppasiga chiroyli qip-qizil bo'lib ochiladi.

Tarqalishi. Vatani O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Afg'oniston; yov-voyi turlari O'rta dengiz atrofi, O'rta Osiyoning jan.da, Qrim, Kavkaz, Eron, Afg'oniston, Old Osiyo va Dog'istonda uchraydi. O'zbekistonda Sherobod, Quva, Namangan, Denov va Kitob (Varganza) tumanlari a'lo sifatli anorlari bilan mashhur. Anor tabiiy xolda O'zbekistonning janubiy rayonlarida, janubiy va g'arbiy Xisorda uchraydi. Madaniy holda esa O'zbekistonning barcha hududlarida uchratish mumkin

Agrotexnikasi: Anor ko'chati asosan to'rt xil usul bilan ko'paytiriladi. 1. Anor donidan, ammo uning o'sishi sekin, ser tikan bo'lib, mevasi uncha katta bo'lmaydi. 2. Daraxt tagidan va tanasidan o'sib chiqqan yovvoyi novdalardan olib ko'paytiriladi. Ko'paytirilgan ko'chatlar tez o'sadi, lekin hosilni kam beradi. 3. Daraxt shoxlaridan kesib olib ekiladi, bu sekin o'sadi lekin hosilni yaxshi beradi. 4. Anor daraxtini shoxlaridan biri olib yerga ko'miladi. Bu usul "parxesh" deb yuritiladi. Anor asosan qalamchalaridan ko'paytiriladi. Ekish erta bahorda boshlanadi. Bunda kuzda tanlangan eng yaxshi anor navlaridan fevral-mart oylarida qalamchalar 20-25 sm o'lchamda, 45 gradus qiyalikda kesib olinib, tayyorlangan yer maydonlariga 45 gradus qiyalikda ekilsa juda yaxshi natijaga erishiladi.

Anor ko'chati ekilganidan keyin birinchi yildan boshlab 30–40 sm balandlikda 4–5 ta asosiy shox qoldirib past bo'yli daraxt ko'rinishida yoki 3–4 asosiy shox qoldirib butasimon shakl beriladi. Har yili qurigan, nimjon rivojlangan, eskirgan o'zak novdalar kesib turiladi. Vegetatsiya davrida 12–16-marta sugoriladi, qator oralari yumshatiladi, begona o'tlardan tozalanadi, oziqlantiriladi. Anor har xil tuproqli yerlarda o'saveradi, lekin sizot suvlar chuqur joylashgan, unumdor, suv bilan yaxshi ta'minlangan, suvni yaxshi o'tkazadigan tuproqli yerlarda yaxshi o'sib, mo'l hosil beradi. Asosan respublikamizning shimoliy hududlarida anor oktyabr oyining oxirlardan boshlab

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria
on October 20th, 2022.

www.conferencepublication.com

ko'miladi. Ko'mish uchun ekilgan anor ko'chatlari ko'miladigan tomonga moslashtirib boriladi (anorni egish maqsadida) bunda ekilgan anorlarni ko'miladigan tomonidagi ildizlari rivojlantirmaslik uchun kesilib turiladi. Ko'mish vaqtida tuproqda nam yetarli bo'lsa, shox-shabba ustiga tashlangan tuproq yaxshi ushlab qoladi, quruq tuproq esa shoxlar tagiga to'kilib tushib ketadi. Mart oyida esa kunlar isishi bilan anor tuplari ochiladi. Keyin ortiqcha hisoblangan novda va shoxlar qirqiladi, to'g'ri shakl beriladi hamda qalamcha tayyorlanadi. Surxondaryo viloyati aholi tomorqalarida anor qishga ko'mmay o'stiriladi. anor tuplari kuchli, baquvvat o'sadi.

Zararkunandalari – mevaxo'rlar, bitlar, kanalar; kasalligi – novdalar qorasoni va barqlariga zang zambrug'i.

Anor navlari; Kolleksiyalarda Anorning 69 navi hisobga olingan. Qulay sharoitlar mavjudligi sababli respublikamizda anorning turli xil navlari o'stirilmoqda. Keng ishlab chiqarish sharoitlarida ko'paytirishga uning quyidagi istiqbolli navlari tavsiya etilgan.

Ulfi – Kitob tumanida ekiladigan eng asosiy nav. Boshqa joylarda kam uchraydi. Har tupdan o'rta hisobda 20-25 kg gacha hosil olinadi. Mevasi sentabr oyining oxiri – noyabrning boshlarida pishadi, yumaloq, yirik, o'rtacha vazni 250-300 g, qobig'i o'rtacha qalin. Rangi sariq, nursiz malina rangda. Doni o'rtacha yirik, sharbati och pushti, shirin, bir oz nordon, tarkibida 14-15% qand, 0,5-0,6% kislotabor. Tashishga idamli, o'rtacha 3-4 oy saqlanadi.

Pushti Gulosha – Ozarbayjondagi eng yaxshi standart navlardan biri, O'zbekistonda har tupdan o'rtacha 20-25 kg dan hosil olinadi. Mevasi oktabr oyida pishadi, o'rtacha yirik, vazni 200-250 g, ba'zilar 700 g keladi, rangi malina va pushti tusda, bir tekis, bir oz yoqimli. Tarkibida 15-16% qand va 1,2-1,3% kislota bor. Tashishga chidamsiz, 3-4 oygacha saqlanadi.

Oq dona (tuyatish) – mevasi yassi yumaloq, yirik, o'rtacha vazni 300-350 g keladi, sentabr oxirida pishadi. Doni yirik, po'sti yupqa, qattiq, pishganda mevasining rangi och sariq yoki qizilbo'ladi. Sharbati och pushti, xushbo'y, shirin, tarkibida 14% gacha shakar va 0,5% gacha kislota bor. Mevasi 2 oygacha saqlanadi. O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida ekish uchun hududlashtirilgan.

Achchiq dona. Mahalliy nav. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Xorazm, Sirdaryo viloyatlari bo'yicha davlat Reestriga kiritilgan. Bu navning butasi o'rtachadan kattaroq, ikkinchi-uchinchi yili hosil bera boshlaydi. Unumdor sog'

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria
on October 20th, 2022.

www.conferencepublication.com

tuproq yerlarda ko'p hosil olish mumkin. Sho'r yerlarga chidamsiz. Sovuqqa chidamli. Mevasi yirik, sal dumaloq, mazasi nordon-shirin, po'stining rangi och pushtidan tortib to'q qizilgacha. Sharbati to'q qizil, xushbo'y. Mevasi oktabrning uchinchi o'n kunligida pishadi. Mevasining pishgan vaqtidagi ta'm bahosi 3,9 ball, o'rtacha vazni esa 220 g. Denov nav sinash tajriba maydonining ma'lumotlariga ko'ra, hosildorligi gektaridan 67,5 sentnerni, eng yuqori hosildorligi esa 76,7 sentnerni tashkil etgan.

Desertniy. Janubiy O'zbekiston mevachilik-uzumchilik stansiyasida yaratilgan. Respublika bo'yicha davlat Reestriga kiritilgan. Bu nav sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli, zararkunanda va kasalliklar bilan kam zararlanadi. Mevasi oktabrni ikkinchi o'n kunligida pishadi. Po'sti qizil, mevasining o'rtacha vazni 350 g. Bu navning eng yaxshi xususiyati shundaki, uning danagi yumshoq va mayda. Sharbatining rangi to'q qizil, mazasi nordon-shirin. Sharbat miqdori yuqori 5,7%, sharbatida 17,2% qand bor. Mevasining pishgan vaqtdagi ta'm bahosi 4,5 ball. Denov nav sinash uchastkasining ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha hosildorligi gektaridan 88,0 sentnerni, eng yuqori hosildorligi esa 103,3 sentnerni tashkil etgan.

Qozoqi anor. Mahalliy nav. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Namangan, Farg'ona, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Toshkent, Jizzax, Xorazm, Sirdaryo viloyatlari bo'yicha davlat Reestriga kiritilgan. Navning butasi o'rtacha bo'lib, shox-shabbasi dumaloq, hosilga ikkinchi yili kiradi. Yaxshi strukturali chuqur unumdor tuproqlarda eng yuqori hosil beradi. Sho'rga va sovuqqa chidamsiz, zararkunanda va kasalliklarga chidamli. Mevasi o'rtacha kattalikda, ko'kish-sariq rangli. Mevasining sharbati malina tusida tovlanib turadigan to'q qizil rangli, mazasi nordon-shirin, juda mazali. Mevasining pishgan vaqtidagi ta'm bahosi 4,4 ball. Denov nav sinash tajriba maydonining ma'lumotlariga ko'ra, to'rt yillik o'rtacha hosildorligi gektaridan 92 sentnerni, eng yuqori hosildorligi esa 150,8 sentnerni tashkil etgan.

Qizil uluchshenniy. Nav O'zbekiston xalq seleksiyasi natijasida yaratilgan. Surxondaryo viloyati bo'yicha davlat Reestriga kiritilgan. Bu navning butasi o'rtacha balandlikda. Mevasi oktabr oyining uchinchi o'n kunligida pishadi. Mevasi sharsimon, kattaligi 150 g dan 400 g gacha, mevasining o'rtacha vazni 210 g. Sharbati olcha rangli, mazasi nordon-shirin, xushbo'y. Sharbati tarkibida 15% qand, 1,05% kislota bor. Mevasi uzoq joylarga yaxshi tashiladi, saqlanishi 3-4 oy. Mevasining pishgan vaqtidagi ta'm bahosi 4,4 ball. Denov nav sinash tajriba maydonining ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha hosildorligi gektaridan 52,0 sentnerni, eng yuqori hosildorligi esa 82,7 sentnerni tashkil etgan.

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Vienna, Austria
on October 20th, 2022.

www.conferencepublication.com

Dashnobod navi – Dashnobod qishlog'ida ekib yetishtiriladigan anorning qimmatli mahalliy navi. Tupi o'rtacha o'suvchi, mevalari o'rtacha kattalikda, ba'zan yirik, yumaloq yoki cho'ziq yumaloq shaklda, og'irligi 350-600 g, po'sti och-sariq rangda, mayda-mayda qizil hoshiyalari bor. Donlari qizil rangda, shakli cho'zinchoq bo'lib, yeyilganda urug'i kam seziladi, ta'mi shirin, nordonligi deyarli sezilmaydi. Hosilga 3-4-yili kiradi. Mevalari oktabr oyining o'rtalarida pishib yetiladi, lekin terimni sentabrning oxiridan boshlashadi. Hosildorligi o'rtacha bir tupdan 80-110 kg, mevalar tomorqa sharoitida 3-5 oygacha saqlanadi. Issiqqa nisbatan chidamli bo'lib, qurg'oqchilikka bardoshlilik yuqori hisoblanadi. Dashnobod qishlog'ida ushbu nav anorning Anor yetishtirish asosiy kasalliklari bilan zararlanmaydi

Xulosa. O'rganishlar natijasida aholi tomorqalarida 4x3m, 3x3m, 3x2m sxemali usulda ekilgan anorzorlarning pushtalaridan 4-5 yilgacha qo'shimcha ba'zi ekinlar ekib foydalanish mumkin, bu anor tuplarining hosiliga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. qo'shimcha qishloq xo'jaligi ekinlari ekib foydalanilmasa, anor ko'chatlarini 2x2m, 2x3m, 1.5x2m sxemada ekiladi. Bu sxemada ekilganda, bir qator oraliq qoldirilib ikkinchi qator oraliqni eniga 60-80 smli, chuqurligi 30-40 sm qilib ariqlar qazib chiqiladi. Qazilgan ariqlarda organik va mineral o'g'itlar ochiq usulda har bir tup uchun 10-20 kgdan organik o'g'it, yiliga ikki marta 50-100 grammdan azotli, yiliga bir marta 100-200 grammdan fosforli, 50 grammdan kaliyli o'g'itlar beriladi. Ikkinchi yili qoldirilgan qatorlar eniga 60-80 smli, chuqurligi 30-40 sm qilib ariqlar qazib chiqiladi va yuqoridagi o'g'itlash ishlari takrorlanadi, birinchi yil qazilgan ariqlar ko'miladi va shu tariqa almashlab o'g'itlash ishlari davom ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.M.Mirzayev, M.Q.Sobirov. Bog'dorchilik. – T: 1987.
2. M.M.Mirzayev, M.Q.Sobirov. O'zbekistonda bog'dorchilik. – T: 1980.- b. 6-30.
3. I. Ne'matov. Anor yetishtirish sirlari. – Toshkent. 2011.b. 3-15.
4. T.E. Ostanaqulov, C.Narziyeva, B.X.G'ulomov "Mevachilik asoslari" C., 2011. 152-153 b.
5. www.gov.uz.
6. www.lek.uz.
7. <https://agro-olam.uz/>